Registered in Germany **Europa Revue Journal**
ISSN: 1862-6564 **Vol. 6 No. 6 (2026) Published June 14, 2026**

ANALYSIS OF THE NEGATIVE IMPACT OF SOMATIC DISEASES ON THE PERIODONTIUM AND GINGIVAL RECESSION

E. E. Sabirov, I. I. Zakirov

Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

Email: sabirovelyor@bk.ru

Abstract

The condition of periodontal tissues in patients suffering from somatic diseases differs statistically significantly from that of individuals without such pathologies across a number of indicators. The relationship between laboratory parameters (including fibrinogen levels, serum cholesterol, and blood glucose concentrations) and the severity of periodontitis (measured by the number of sextants with periodontal pockets) indicates the need for the implementation of effective prevention and treatment programs for periodontal diseases in patients with ischemic heart disease.

Keywords: periodontal disease, cholesterol, somatic diseases.

SOMATIK KASALLIKLARNI PARODONT VA MILK RETSESSIYASIGA SALBIY TA’SIRINI TAHLILI

Sabirov E.E., Zakirov I.I.

(Uzbekistan, Tashkent) Tashkent State Medical University

Annotatsiya. Somatik kasalliklarga chalingan bemorlarning parodont to‘qimalari holati bir qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha ushbu patologiyaga ega bo‘lmagan shaxslarnikidan statistik jihatdan sezilarli darajada farq qiladi. Laborator ko‘rsatkichlar (fibrinogen, qon zardobidagi xolesterin va glyukoza miqdori) hamda parodontitning og‘irlik darajasi (parodontal cho‘ntaklardagi sekstantlar soni) o‘rtasidagi bog‘liqlik yurak ishemik kasalligi bor bemorlarda parodont kasalliklarining oldini olish va davolash bo‘yicha samarali dasturlarni joriy etish zaruratini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: parodont kasalligi, xolesterin, somatik kasalliklar

Dolzarbligi. Somatik kasalliklar zamonaviy hayotning doimiy hamrohiga aylanib bormoqda. Axborotning haddan tashqari ko‘pligi, hayot sur’atining tezlashuvi, noqulay mehnat va turmush sharoitlari surunkali kasalliklarni yuzaga keltiradi yoki uni sezilarli darajada kuchaytiradi [1]. Ko‘plab zamonaviy tadqiqotlar shuni isbotladiki, yurak-qon

tomir patologiyalari, nevrotik holatlar va ovqat hazm qilish tizimidagi yara kasalliklarining rivojlanishida aynan emotsional omillar yetakchi o‘rin tutadi [2]. Parodont to‘qimalari stress omillariga nisbatan yuqori sezuvchanlik bilan ajralib turadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, stress vaqtida parodontning hujayraviy shikastlanishi rivojlanishi mexanizmida LPO va gemostazning faollashuvi muhim rol o‘ynaydi [3,4].

Tadqiqot maqsadi. Organizmdagi somatik kasalliklarni parodont va milk retsessiyasiga salbiy ta’sirini o’rganish

Tadqiqot materiali va usullari. O‘rganish maqsadida 2025-2026 yillar davomida Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti stomatologya klinikasida 110 nafar bemor klinik tekshiruvdan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Surunkali emotsional-og‘riqli stress sharoitida yumshoq to‘qimalarning gistologik tekshiruvi hujayra, epiteliy va biriktiruvchi to‘qima elementlarida O‘EBSga qaraganda chuqurroq distrofik o‘zgarishlar borligini aniqladi. Milk epiteliysining chegaralari noaniq. Bazal va tikanaksimon qavatlar orasidagi chegara sust ifodalangan. Yadrolari piknotik va lizislangan hujayralar, shuningdek, epiteliyning yakka mikronekrozlari uchraydi. Parodont biriktiruvchi to‘qimasining dezorganizatsiyasi hodisalari kuzatilib, bu kollagen tolalarining parchalanishida namoyon bo‘ladi. Tolalarning o‘zi shishgan va bo‘rtgan ko‘rinishda bo‘ladi. Kollagen tolalari bo‘ylab fibroblastlar joylashadi. Qon kapillyarlari va mayda venalar kengaygan hamda qonga to‘lgan. Juda kam hollarda kapillyarlar devorining yemirilishi kuzatiladi. Yirikroq tomirlarda endoteliyning shishishi qayd etiladi. Donachalar bilan to‘lgan, shuningdek, degranulyatsiyalangan holatdagi semiz hujayralar uchraydi. Surunkali emotsional zo‘riqish holatida bo‘lgan I darajali tarqalgan parodontitga chalingan bemorlarni tekshirish stress yuklamasi kamaytirilgan sharoitlarda ishlaydigan bemorlarga nisbatan kasallikning klinik ko‘rinishlari chuqurlashish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ularda og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi yomonlashgani, parodontdagi yallig‘lanish jarayonlari tarqalishi ortgani kuzatilgan. O‘rta og‘irlik darajasidagi tarqalgan parodontitga chalingan bemorlarda ham xuddi shunday tendensiya qayd etildi. Bu bemorlarda milk va og‘iz suyuqligining umumiy kollagenolitik faolligi darajasi ishonchli darajada oshgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich ayollarda erkaklarnikiga

qaraganda yuqori edi. Muallif surunkali emotsional zo‘riqish kollagenoliz jarayonini kuchaytiradi, parodont biriktiruvchi to‘qimasi asosiy moddasining depolimerizatsiyasiga ko‘maklashadi, degan xulosaga keladi. Bundan tashqari, milk va og‘iz suyuqligi kollagen faolligi darajasi bilan siydik orqali oksiprolin chiqarilishi o‘rtasida yaqin korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi, bu bemorlarda parodont to‘qimalarida kollagen katabolizmi kuchayganining isbotidir. Va nihoyat, tarqalgan parodontit bilan og‘rigan bemorlarda asab regulyatsiyasining individual-tipologik xususiyatlarini o‘rganish umumiy xavotirlikning o‘rta va yuqori darajada ekanligini ko‘rsatdi. Surunkali emotsional zo‘riqish sharoitida ishlaydigan ayollar guruhida oddiy sharoitlarda ishlovchilarga nisbatan umumiy xavotirlik darajasi ortgani aniqlandi. Milk, og‘iz suyuqligi va qon zardobining kollagen faolligi darajasi hamda umumiy xavotirlik darajasi o‘rtasida aniqlangan yaqin korrelyatsion bog‘liqliklar parodontitdagi metabolik o‘zgarishlar asab regulyatsiyasining individual-tipologik xususiyatlariga bog‘liq ekanligidan dalolat beradi. Tadqiqotlarimiz natijasida kelib chiqadigan surunkali emotsional zo‘riqish sharoitida parodont involyutsiyasining tezlashishi, molyarlarning tushishi va jag‘ suyak to‘qimasi rezorbsiyasining kuchayishi haqidagi qoidalarni qarishning mohiyati tirik organizmning barcha darajalarida zararlarning to‘planishi va yig‘ilishidir, degan tasavvurlarning isbotlaridan biri sifatida qarash mumkin.

Список литературы

1. Коварж М., Борзова Е., Эрдэлски И. и др. Изменение капиллярного кровотока в десне при эмоциональном возбуждении//Стоматология. -2019. -№4. -с.23-25.
2. Профилактика воспалительных заболеваний пародонта. Учебное пособие / А.И. Абдурахманов и др. - М.: ГЭОТАР-Медиа, 2015. - 80 с.
3. Сабиров Э.Э., Хусанов Р.А. Юрак ишемик касалликлари бўлган беморларда парадонт касаллигини ўзига хос хусусиятлари // Биомедицина ва амалиётжурнали, №5, 2020. – С. 41-44.
4. Sabirov E.E., Xusanov R.A. The dental status of patients with ischemic heart diseases// International scientific and practical conference CUTTING EDGE-SCIENCE August, 2020 Shawnee, USA Conference Proceedings. – С.42-43.